



## Nutqning Ta'sirchanligini Oshirishda Undov So'zlarning O'Rni

Iroda Kaxarova

Filologiya fanlari doktori (DSc)

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsent

Toshkent, O'zbekiston

**Annotatsiya.** Undov so'zlar insonlar turli his-kechinmalarini ifodalash, diqqat qaratishga jalb qilish, biror kishini yoki qaysi bir jonivorni chaqirish jarayonida ishlatiladigan so'zlar bo'lib, leksik (atash) ma'no ifoda etmaydi. Shunday bo'lsa-da, ongda muayyan tushuncha hosil qiladi. Ushbu maqolada o'zbek tilida undov so'zlarning til va nutqdagi taraqqiyotini Mahmud Qoshg'ariy devon-lug'ati, mumtoz va zamonaviy ijodkolarining asarlari tili misolida ko'rib chiqildi.

**Аннотация.** Восклицательными словами называют слова, употребляемые в процессе выражения различных чувств людей, привлечения внимания, призыва человека или животного, и не выражающие лексического (именного) значения. Тем не менее, это создает в уме определенную концепцию. В данной статье развитие восклицательных знаков в узбекском языке и речи рассмотрено на примере деван-словаря Махмуда Кашгари, языка произведений классических и современных писателей.

**Annotation.** Exclamatory words are used in the process of expressing different feelings of people, attracting attention, calling a person or an animal, and do not express a lexical (name) meaning. Nevertheless, it creates a certain concept in the mind. In this article, the development of exclamations in the Uzbek language in the language and speech was considered on the example of Mahmud Kashgari's devan-dictionary, the language of the works of classical and modern writers.

**Калит сўзлар:** undov so'z, devon, his-hayajon undovi, emotsiya, emotiv nominatsiya


**Ключевые слова:** восклицательное слово, деван, восклицание эмоции, эмоция, эмоциональная номинация

**Key words:** exclamation word, devan, exclamation of emotion, emotion, emotional nomination

Har qanday tilning lug'at tarkibida katta xajmdagi undov so'zlar mavjud. Ular emotsional mulqotning hamma holatlari uchun xizmat qiladi. So'zlovchi ularni qo'llash qoidasini biladi va bir-biridan ma'nosiga ko'ra farqlaydi.

Undov so'zlar – inson hissiyotini, bironing diqqatini tortishni, biror jonivorni chaqirishni ifodalash uchun ishlatiladigan so'zlar. Ular garchi leksik (atash) ma'no ifoda etmasa-da, ongda idrok etiladi va tushuncha hosil qiladi. Lisoniy moddiylashgani tufayli xotiradan o'rin egallagan. Bunga ularning ong va til tizimiga daxldorligi zamin yaratgan. To'g'ri, undov so'zlar tasavvurda obraz hosil qilmaydi, lekin ularning ongda idrok etilishi orqali jamlangan bilimlar turlicha xarakter kasb etadi. Bundan undov so'zlarning turli ma'noviy guruhlari paydo bo'ladiki, ularni ma'nosiga ko'ra tasniflash mumkin bo'ladi. Undov so'zlarni lisoniy birlik sifatida guruhlantirish uchun, avvalo, ularning uslubiy jihatdan turli ma'nolarni ifodalashi e'tiborga olinishi lozim bo'ladi.

O'zbek tilida undov so'zlarni diaxron va sinxron turlarga bo'lib o'rganish mumkin. Buning uchun dastlab Mahmud Qoshg'ariyning "Devonul lug'otit turk" kitobida uchraydigan undovlarga e'tibor qaratdik.



Hayvonlarni harakatga undash, chaqirish, yurgizish yo to'xtatish, qaytarish, sog'ish, sug'orish, haydash, o'rnidan turg'azish yoki cho'ktirish kabi holatlarda turli undov so'zlardan foydalaniladi. Hatto ulardan ayrimlari faqat ma'lum bir hayvonga qarata aytilishi bilan chegaralanadi. Masalan, chuk-chuk, cho'k-cho'k (chix-chix) undovi tuyani cho'ktirishdagina qo'llanadi (I, 321). Agar toycha biya yurayotganda (onasi)dan orqada qolib ketsa, unga etib olishga undab "quri-quri" (III, 242) so'zi orqali chaqiriladi.

Otni yurgizish uchun "chuh", to'xtatish uchun "dirr" undovlari ishlatilsa, eshakni to'xtatish uchun "tushu-tushu", "ish" so'zlari qo'llanadi (III, 244). Ularni bir-birining o'rnida qo'llab bo'lmaydi.

Höch-höch (hech-hech), xoch-xoch – echki podasini haydashda qo'llanadigan so'zdir (II, 326). Asli bu so'z öch-öchdir. Shu so'zning boshidan "h" undoshi orttirilishi natijasida "prokopa" hodisasi yuz bergan. So'z boshidan bir undoshning orttirilishi tilshunoslikda "prokopa" deb yuritiladi<sup>1</sup>. Bu arabchaga o'xshaydi. Chunonchi arablar qo'y boqishdagi chaqiriqlarida هججت deyidilar. Bu qo'ylarni qaytarish uchun "baqirdim" demaganidir.

Echkilarni chaqirishda, sug'orishda chik-chik yoki chilik-chilik (chigi-chigi) singari undov so'zlar qo'llanadi (I, 331).

Ho'kizni sug'orishda "osh-osh", "ush-ush" yoki "ho'sh-ho'sh" so'zlaridan foydalaniladi (I, 69).

Agar mollar bosh bermay harakatlansa, ularni tinchitish uchun hach-hach, ho'sh-po'sh, xo'sh-xo'sh degan undov so'zlar<sup>2</sup> qo'llansa, ayrim so'zlar ularni yurgizish uchun aytiladi. Masalan, chuh-chuh – otni yurgizish uchun, unga ta'zir berganda aytiladigan so'zdir (III, 128).

Sog'ish uchun aytiladigan undovlar ham mavjud. Shular orasida jyr-jyr (jur-jur) tuya sog'ilganda, ya'ni sutning tog'oraga "jir-jir"lab tushishiga qarab aytilsa (I, 448), "ho'sh-ho'sh" sigir, "turey-turey" qo'y, "churey-churey" yoki "churiya" esa echkilarni sog'ish jarayonida ularga murojaat qilib aytiladigan undov so'zlardir.

Ayrim undovlar hayvonlarni chaqirish uchun aytiladi. Masalan, käh-käh (kah-kah) – itni chaqirish uchun qo'llaniladigan undov so'z (III, 149). To'ko'-to'ko' yoki tuku-tuku – kuchuk bolasini chaqirish uchun qo'llaniladigan so'z (III, 249). Shu o'rinda undov so'zlarning jonivorlar yoshiga qarab aytilishi ham ayonlashadi. Qurrîh-qurrîh – otning bolasini chaqirishda qo'llanadi (III, 378).

Ba'zi undovlar hayvonlarni o'rnidan turg'azishga qaratilgan. Aytaylik, op-op – eshakning oyog'i toyib ketganda o'rnidan turg'azish uchun qo'llanadigan undov so'z bo'lib, "tur-tur" degan ma'noni bildiradi (I, 70). Bu so'z arablarning la'an degan so'ziga to'g'ri kelarkan<sup>3</sup>. Qizig'i shundaki, hozirgi paytda yosh bolalar yiqilganda ularni o'rnidan turg'azish uchun "oppa", "oppa-oppa" yoki "uppa", "uppa-uppa" deb aytiladi. Ammo ilgarilari "or-or (o'p-o'p)" so'zi biron ishda hovliqib va maqtanib, so'ng uni isbotlashdan ojiz qolganlarga qarata ham aytilgan. Bu o'rinda "or" so'zining hozirgi vaqtda "nomus", "uyat" ma'nolarida qo'llanib kelayotgani, nazarimizda, shu bilan bog'liqdir.

Undovlardan bir qismi hayvonlarga qarata aytilsa (zaq-zaq – qo'chqorni suzishga undovchi so'z (I, 321), bir qismi qushlarga murojaatni ifodalaydi. Bunga tah-tah – lochin uchirilgandan so'ng chaqiriladigan so'zni misol qilish mumkin. Uning tarkibidagi h nafas olish uchun xizmat qiladigan h dir (III, 128).

<sup>1</sup> Шоабдурахмонов Ш. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.76.

<sup>2</sup> Махмуд Қошғарий. Девони луғотут турк. 3 жилдлик. I жилд. – Тошкент: Фан, 1960. – Б.312. (Bundan keyin shu manbaning faqat jild raqami va betini ko'rsatish bilan kifoyalanamiz).

<sup>3</sup> Махмуд Қошғарий. Девону луғати-т-турк (Туркий сўзлар девони). – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б.32.



Bundan tashqari devonda kurt-kurt, qur-qur, shuk va boshqa bir qator undovlar ham keltirilgan. Shuk – tinchitish, to‘xtatish so‘zi. “Jim”, “tek”, “tss”ga sinonim sifatida qo‘llanadi (I, 339).

Ham insonga, ham hayvonga qarata ishlatiladigan undovlar ham bor. Bunga “**chish-chish**” yoki “**chush-chush**” undovini misol qilish mumkin. U yosh bolalar va chaqaloqlarni to‘shida xotinlar tomonidan qo‘llanadi. Shuningdek, ot mingan kishi ham otni minib kelgandan so‘ng uni siydirish uchun bu so‘zni qo‘llaydi (I, 319).

Devonda keltirilgan undov so‘zlar orasida his-hayajon va rasm-odat undovlari ham mavjud. Uva//ova – a, labbay (I, 298), a (I, 73), jy (III, 137), aj (ey), awa (I, 116), öp-öp (I, 196), gylf (I, 309), zab-zab (“tez” degan ma‘noni anglatadi) (I, 268), hey ma‘nosini beruvchi “qi” undovi (III, 230), hushyor bo‘l ma‘nosidagi saq-saq undovi (I, 215) va h.k. kabilar shular jumlasidandir. Ularning har biri ma‘lum bir ma‘nolarni ifodalab keladi. Masalan, öp-öp – afsuslanish, norozilik bildiruvchi undov so‘z. A – hayronlik va taajjubni bildirib keladi. Awa – alamlanishni ifodalaydi. **Ach** – “hoy, he” ma‘nolarida qo‘llanadigan undov so‘z (I, 71).

Ma‘lumki, ba – qo‘yning ma‘ragan ovozigaga taqliddan hosil bo‘lgan taqlid so‘zdir (III, 223), ammo u orqali qo‘ylarni chaqirish ham mumkin.

Ilgari bolalarni uxlatishda “balu-balu” (III, 251) undovi qo‘llanilgan, biroq hozir uning o‘rnida onalar bolasini beshikda uxlatish uchun uning o‘rnida “alla” so‘zini qo‘llaydilar.

Hozirda “voy” deb qo‘llanadigan undov ilgari “va” ko‘rinishida qo‘llanilgan (III, 234). “Va” hozir biriktiruv bog‘lovchisini ifodalab keladi.

Undov so‘zlarning til va nutqdagi keyingi taraqqiyotini mutafakkir shoir Alisher Navoiy asarlari tili misolida ko‘rib chiqdik. Jumladan, Navoiy asarlarida bir qator undov so‘zlarni uchratdik. **O** (475), **Oh** (494), **Ayo**, **Vo** (Ey ma‘nosida), **Oh** – Oh, nola<sup>4</sup>, **Ey**<sup>5</sup>, **Hay**, **Hay-hay** kabilar bunga misoldir.

**Vah-vah** – ajab, ajabo, taajjub ma‘nolarini anglatuvchi undov so‘z bo‘lib, voy-voy, voh-voh, oh-oh shakllarida uchraydi. Demak, uning talaffuzida (vah-vah / voh-voh) tor unlining keng unliga almashinishi, proteza hodisasi (so‘z boshidan undosh tovushning orttirilishi) yuz bergan<sup>6</sup>. Xuddi shunday holat oy / voy undovida ham kuzatiladi. **Voy** undovi oh, musibat, g‘am ma‘nolarini ifodalashga xizmat qiladi.

Shuningdek, oh, voh – **vuh**, **vohasrato**, **evoh** ko‘rinishlarida ham uchraydi.

**V-ey**<sup>7</sup> undovi esa aslida “va ey”, “va hoy” shaklidan reduksiya, ya‘ni ikki undosh orasidagi unlining kuchlanishi natijasida tushib qolishi natijasida shu holatga kelib qolgan. “Ey voh” undovi epenteza (o‘rtadagi tovushning tushishi) natijasida “evoh” shaklini olgan. Eski o‘zbek tilida uning o‘rnida “dardo” so‘zi ham ishlatiladi.

**Ho** – kimsaning nidosiga javob qilishda aytiladigan undov so‘z bo‘lib, uning “ha” shakli ham bor, ammo u, asosan, tasdiqni bildiruvchi modal so‘z sifatida ishlatiladi.

Kimsaning nidosiga javob qilishda “Hov” undovi ham ishlatiladi. U Ho+v shaklida paydo bo‘lgan. Uning yana nihoyatda hayajonlanganda aytiladigan “Ho+y” sado ko‘rinishi hamda **Huy** – Hay ila, hay-hay, oh-oh<sup>8</sup>, O, o+y, h+oy, h+uy, h+o‘ shakllari ham bor.

<sup>4</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. II жилд. – Тошкент: Фан нашриёти, 1983. – Б.547.

<sup>5</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV-жилд. – Тошкент: Фан нашриёти, 1985. – Б.561.

<sup>6</sup> Шоабдурахмонов Ш. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.75.

<sup>7</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I-жилд. – Тошкент: Фан нашриёти, 1983. – Б.385.

<sup>8</sup> Ҳасанов Б. Навоий асарлари учун қисқача луғат. – Тошкент: Ўзбекистон Фан нашриёти, 1993. – Б.372.



**Hoy-hoy** – “Voy-voy”, “voydod” degan ovozlarga o‘xshash chiqarilgan tovush bo‘lib, dafn marosimi chog‘idagi yig‘ida aytiladigan qo‘shiq nomini ham bildirib keladi. **Huy** – bu ham “huv” maqomidagi bir sado: Kun biyik chiqq‘uncha *huyu* nolani past etmali<sup>9</sup>.

**Hayo-hay, hayo-huy** – shovqin-suron, **Hoy-huy, hoyu-huy** – shodlikda chiqarilgan ovoz, ho-ho, hayqiriq ma‘nolaridagi so‘zlardir.

Umuman aytganda, undov so‘zlar ong va til tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikdan kelib chiqadi. Aytaylik, tana lazzatni his qilsa, ko‘pincha ong va tilda bu holat “O” yoki “Oh” undovi orqali ifoda etiladi (*O, buncha maza!* Yoki: *Oh buncha shirin!*). Lekin ba‘zan aynan shu undov so‘zlar tanada birdan hosil bo‘lgan og‘riqni ifodalashda ham qo‘llanadi (*O, yuragim!* Yoki *Oh, qo‘lim!*).

Demak, undov so‘zlar insonning hissiy qobiliyati natijasida paydo bo‘ladi. U orqali insonning lisoniy qobiliyati hissiy kechinmalariga hamohangligi ko‘rinadi. Shuni inobatga olib, A.I.Smirniskiy undov so‘zlar fikrlash orqali ifodalanmasligi sababli ularning emotsional mazmunini tushunarsiz, anglab va tahlil qilib bo‘lmaydi, deb hisoblaydi<sup>10</sup>.

Hozirgacha emotsiyani ifodalashda so‘zning ma‘nosi emas, vazifasi muhim, degan qarash etakchilik qilib kelmoqda. Undov so‘zlarning vazifasi esa muomala sharoitida va matnda aks etadi<sup>11</sup>. Emotiv ma‘no bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab vazifalar uning qay holatda denotativ yoki ekspressiv ma‘no komponenti bilan bog‘lanishi, tilda turli darajada intensiv aks etishida namoyon bo‘ladi.

Emotiv nominatsiya deskriptiv jihatdan qiyoslaganda, undov so‘zlarning o‘ziga xos morfologik xususiyatlari, sinxron va diaxron tarkibiy komponentlari, emotiv munosabatni amalga oshirish me‘yorlari, vositalari va usullari, tillararo tarjimada o‘zgarish holatlari anglashiladi.

Undov so‘zlarning semantik markirovkalanganligi haqidagi fikrlar, ularning turlicha uslubiy ma‘no ifodalashi ilgaridan bir qator ishlarda ko‘rsatilgan va asoslangan<sup>12</sup>.

Undovlar, shubhasiz, so‘z hisoblanadi, chunki ular til birliklarining mezonlariga javob beradi. Faqat ular umumlashgan ma‘noga ega. Ma‘nodagi umumiylik undov so‘zlar, xususan, his-hayajon undovlarining eng xarakterli xususiyatlaridan biridir. Undov so‘zlarning barcha uchun umumiy holda adekvat tushunilishi ularga xos yana bir muhim jihatdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шоабдурахмонов Ш. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.76.
2. Махмуд Қошғарий. Девони луғотут турк. 3 жилдлик. I жилд. – Тошкент: Фан, 1960. – Б.312.
3. Махмуд Қошғарий. Девону луғати-т-турк (Туркий сўзлар девони). – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б.32.
4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. II жилд. – Тошкент: Фан нашриёти, 1983. – Б.547.
5. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV-жилд. – Тошкент: Фан нашриёти, 1985. – Б.561.

<sup>9</sup> Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.779.

<sup>10</sup> Смирницкий А.И. Значение слова // Вопросы языкознания. – Москва, 1955. – № 2. – С.80.

<sup>11</sup> Henie P. Language, thought and culture. Ed. – USA: University of Michigan Press, 1958. – P. 58.

<sup>12</sup>Травничек Фр. Некоторые замечани о значении слова и понятия. – Вопросы языкознания. – 1956. – №1; Искос А.М., Ленкова А.Ф. Выражают ли междометия понятия? Уч. зап. ЛГУ. Сер. филол. наук. – 1958. – Вып. 48. – № 260; Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. – Москва: Высшая школа 1989. – 800 с.



6. Шоабдурахмонов Ш. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.75.
7. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I-жилд. – Тошкент: Фан нашриёти, 1983. – Б.385.
8. Ҳасанов Б. Навоий асарлари учун қисқача луғат. – Тошкент: Ўзбекистон Фан нашриёти, 1993. – Б.372.
9. Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.779.
10. Смирницкий А.И. Значение слова // Вопросы языкознания. – Москва, 1955. – № 2. – С.80. Henie P. Language, thought and culture. Ed. – USA: University of Michigan Press, 1958. – P. 58.
11. Henie P. Language, thought and culture. Ed. – USA: University of Michigan Press, 1958. – P. 58.